

## MAKTUB EPISTOLYAR JANR NAMUNASI SIFATIDA

*Abdurayimova Irodaxon Iqboljon qizi  
O'TAFI birinchi bosqich tayanch doktoronti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktub, xat va noma atamalarining o'zaro farqlari hamda maktublarning epistolyar janrni hosil qiluvchi manba sifatidagi xususiyatlari tog'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktub, xat, noma, adabiy janr, epistolyar janr, adabiy tanqid, badiiy asar, adresat, muallif.

“Maktub” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib izohli va etimologik lug‘atlarda yozmoq, bitmoq ma’nolarini beradi. Shunday ekan, xalq orasida maktub so‘zi bilan bir qatorda xat, ilm-fan kishilari orasida esa noma so‘zlari yonma- yon tarzda keltirib o‘tiladi. Ularni birlashtirib turuvchi va bir-biridan farqlab turuvchi jihatlari bilan birqalikda o‘rgandik. Endi maktubdan farqli o‘laroq xatga to‘xtalishni joiz topdik.

Maktub, xat, noma atamalari bir-biriga yaqindek ko‘ringani bilan ular bir-biridan muayyan darajada tafovut qiladi. Adabiyotshunoslik ilmida bu uch atamaning o‘rganilishida yaqinlik bor. Ularni umumlashtirib turuvchi xususiyatlari ham mavjud.

Xat – asosida moddiylik turadi, ko‘z bilan ko‘rib qo‘l bilan ushlab unga munosabat bildirsa bo‘ladi. Shuningdek, u ma’lumot(informatsiya) uzatishga va ma’lumot olishga xizmat qiladi. Odatda oilada kimdir xizmat safari, harbiy xizmat uchun ketsa, yoki kimnidir yoqtirib qolgan insonlarda xat yozish holati kuzatiladi. Bunga sabab insonga xos bo‘lgan ichki kechinmalar va ularni ifodalashga urinish sanaladi. Demak, xatlar ma’lumot almashishga xizmat qiladi. Xat uchun badiiylik muhim ko‘rsatkich emas. Uslubi sodda, ravon va ikki muloqotdoshlar uchun birdekk tushunarli bo‘lgan so‘zlardan keng foydalaniladi. Yuqoridagi maktubda esa badiiylik, estetika va fikriy ravonlik muhim.

Maktublar ijtimoiy hayotda uchrashi bilan birqalikda badiiy asarlar tarkibida ham uchraydi. Chunki, adabiyot jamiyat ini’kosi hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va adabiy tanqid rivojiga hissa qo‘shgan maktublar turlari ham adabiy tanqidiy fikrlardan iborat yozishmalarga maktub janri namunasi sifatida qaraladi. Agar uning tarixiga nazar tashlansa, bu fikrda jon borligi ma’lum bo‘ladi.

Olim Dilmurod Quronov bunday yozadi: “Adabiy-badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e’tibori bilan nutq hoidasidir. Zero, adabiy-badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya’ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozyapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday odamligi, u bilan qay yo‘sinda muomala qilish kerakligini, ... har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida

adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz yetkazmoqchi bo`lgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta`sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz. Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz — tasavvuringizdagи suhbatdosh bilan «xayolan gaplashasiz» va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qog`ozda muhrlanadi. Demak, ijodkor va o`quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan nuqtadagina mavjud (M.Baxtin) bo`ladi. Ya`ni, badiiy asar o`qish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, o`qilmagan paytda esa u bir jism — qog`oz, muqova, rangdan iborat narsa xolos».<sup>1</sup> Shunday ekan, maktubda badiiylik va ma'lumot (informatsiya) birlashib bir butunlikni hosil qiladi.

Ibrohim G`afurov tabiri bilan aytganda, “Maktub, avvalo, fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o`z fikriga ega bo`lishga, kuzatuvchanlikka o`rgatadi. Shu bilan birga maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko`rinishlaridan biridir”.<sup>2</sup> Demak, maktub yozish insonning ham ma`naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi hamda madaniyat darajasini o`zida namoyon qiladi.

Maktub muayyan ma`noda dil hujjatidir. Unda muallif shaxsiyati, ruhiy holati, kechinmalari aniq va xolisona ifodalanadi. Maktub mohiyatini ma'lumotning o`zi emas, eng avvalo, obyektga munosabat, shu tufayli tug'ilgan shaxsiy fikr-o`ylar, kechinmalar, his-tuyg`ular tashkil etadi. Shu sababli maktublar inson hayotida ham, adabiyot tarixida ham ma'lum ahamiyatga ega. Maktubning janr sifatida tanqidchilikda qachon paydo bo`lganini aniqlash adabiy-tanqidiy tafakkurdagi izlanish, o'sish bosqichlarini aniqlash uchun alohida izlanishni talab etadi. Shu ma`noda maktubning adabiy-tanqidiy janr sifatida shakllanishi va rivojanishi ilmiy hodisa sifatida ayricha ahamiyatga ega. Tarixan olib qaralganda, adabiy xususiyatga ega maktub (noma, xat)ning ildizi “Avesto” va O`rxun-Enasoy obidalariga borib taqalishini kuzatish mumkin.

O`zbek tanqidi tarixida munaqqid chiqishlariga shoir yoki yozuvchining javob berishi, u bilan bahsga kirishuvi, boringki, o`zini himoya qilishi kam uchraydigan hodisa. Bu holni ma'lum darajada 20-yillardagi adabiy jarayonda ham kuzatish mumkin edi. Adabiy maktubda munaqqidning munaqqidga maktubi (ko`proq javob tarzida) turi ham bor. Bu tur 20-yillarda ancha keng tarqalgan edi. Abdurauf Fitratning «Yopishmagan gajaklar»i bunga misoldir. Ammo bunday asarlarning janriy chegarasi hali aniqlangan emas, ularni ba`zida maqola, ba`zida maktub deb atash hamon davom etmoqda. Xarakteri, ruhi, yozilish sabablaridan kelib chiqib, adabiy-tanqidiy maktub sifatida qarasak maqbuldir.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent: Fan. 2007.- B. 83.

<sup>2</sup> G`ofurov I. Dil erkinligi. - Toshkent: Ma`naviyat. 1998. B.- 78.

<sup>3</sup> Xudoyqulov E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. Fan. 2006. – B.126.

Xat amaliy ehtiyoj natijasida paydo bo'ldi, unga badiiy sayqal berilib – badiiylashtirilib, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan so'zlardan foydalaniladi. Xat va maktubning ahamiyati yuqori darajaga ko'tarilib, bir qancha soxada foydalanila boshlandi, xususan, badiiy adabiyotda ham shunday. Davrlar o'tib maktublar badiiy adabiyotdagi o'rni va ahamiyatining yuqorilashishi natijasida alohida bir janrga – nomalarga aylandi.

O'zbek adabiyotida yozuvchilarning muktblari hozirgacha deyarli o'rganilmay kelayotir. Holbuki, S. Ayniy, Oybek, G. G'ulom, A. Qahhor, Said Ahmad, P. Qodirov. O. Yoqubov va boshqa ko'plab ijodkorlar merosi adabiy maktublarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu janrni jonlantirishda Sh.Xolmirzayev faolligini ta'kidlash o'rini. Maktubning bu turi tanqiddan ko'ra badiiy ijodga tegishli. Shu bois ularni alohida o'rganish kerak. Bu maktublar ijodkorlarning real qiyofasini o'rganish va yaratishda muhim o'rin tutadi. Keyingi yiilarda o'zbek adiblariga kitobxonlar yozgan xatlar ham, o'ziga xos tarzdagi adabiy-madaniy boylik ekani ma'lum bo'lib bormoqda. Bunga shoir Shukrulloha yozilgan, yuzlab xatlar asosida tuzilgan «G'oyibona muhabbat»(2011) to'plami misol bo'la oladi.

Maktubotning dastlabki namunalari adabiy janr sifatida, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, yunon va rim adabiyotida uchraydi. Sitsiron, Goratsiylarning she'riy muktblari fikrimizga misol bo'la oladi. Antik davrda badiiy yozuv madaniyati mavjud bo'lган. Keyinchalik, chiroqli yozish san'ati tegishli muassasalarda maxsus o'qitilgan. Yozma nutq epistolyar janrning obekti hisoblanadi. Qadimgi Yunonistonda eng ko'p tarqalgan kundalik yozishmalar haqiqiy san'at asariga aylantirildi. Epistolyar aloqadan, asosan, publisistik janrda, qadimgi yunon faylasuflarining bir-biriga yozgan xabarlarida foydalanilgan. Matnlarni yozishda muayyan qiyinchiliklar tug'ilganligi sababidan odamlar yordam so'rab yozuvchilarga murojaat qilishgan. Shu tariqa ushbu janr yuzaga kelgan.<sup>4</sup>

Sharq adabiyotida maktubot insho san'atini o'zida namoyon qilib, unda maktub bituvchining badiiy salohiyati, nuktadonligi, so'zga hassosligi aks etgan. Bitiklarda maxsus axborot yetkazishdan ko'ra, chuqur mazmun va yuksak badiiyatning ustuvor bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy "Munshaot" muqaddimasida bu haqida to'xtalib, forsiy tilda yozilgan maktublardagi jimmadorlik, noziklik, mazmunan teran baytlarning turkiy tildagi maktublarda uchramasligi, aksincha, turkiy tildagi xatlarning aksari badiiylikdan yiroq bo'lganini ta'kidlab, turli she'riy parchalar bilan bezalgan, go'zal maktublarni turkiy tilda ham yozish mumkinligini isbotlash maqsadida o'zi yozgan xatlarni to'plab, taqdim etayotganligini ma'lum qiladi.<sup>5</sup>

XVIII asrda maktub shaklida romanlar yozish odat tusiga kirgan. S.Richardsonning "Pamela"(1740); J.J.Russoning "Yuliya yoki yangi Elioza" (1761)

<sup>4</sup> Qo'chqorova M. Maktublar- qalb ko'zgusi./ Jahon adabiyoti. 2009, 11-son.

<sup>5</sup> Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Davlatov O. Navoiyshunoslik. - Toshkent: Tamaddun. 2018. – B. 218.

shular jumlasidan. XIX asrda epistolyar adabiyot tarixiy hikoya, oilaviy xronika tarzida rivoj topdi. I.S.Turgenov “Faust”, F.Dostoevskiy “Faqir kishilar” shular jumlasidan. XX asrda, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida epistolyar janr muhim ahamiyat kasb etgan.

Sharq adabiyotida XIX-XX asrlarda yashab ijod qilgan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muqimiyl, Zavqiy, Furqatlarning bir-birlariga yozgan she’riy maktublari bu janrga tegishli badiiyatning betakror namunalari hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida ushbu shakldan Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov, Abduqahhor Ibrohimov kabi yozuvchilar unumli foydalandilar. Abduqahhor Ibrohimovning “Uyqu kelmas kechalar” nomli romani boshidan oxirigacha Faxri Kamolning sevgilisi Yoqutxonga yo‘llagan xatlaridan iborat. Shuningdek, shoir Iqbol Mirzoning nasrdagi ilk ijod namunasi bo‘lgan “Bonu” romani ham bosh qahramon Bonuning shoirga yozgan maktublaridan iborat. Hozirgi paytda epistolyar adabiyotning she’riy maktublar, murojaatnama, ochiq xat (asosan, adabiy tanqidchilikda) kabi shakllari ham mavjud.

Epistolyar janr hikoyaga bir qadar o‘xhash bo‘lib, o‘quvchiga yozishmalar shaklida taqdim etilishi bilan ajralib turadigan adabiy asar janridir. Epistolyar janr bilan kundalik yozuvlar bir-biridan farq qiladi. Epistolyar janrda adresat va xat oluvchining majburiy ishtiroki bo‘lishi kerak. Kundalik yozuvlari uchun esa bu umuman odatiy emas. Andre Mourois “Notanish kishiga maktublar” kitobida xayoliy o‘quvchiga haftada bir marta u bilan ayolni qiziqtirgan mavzularda suhbatlashish uchun xat yozishni o‘z zimmasiga oldi. Buning uchun ayol bo‘lishi kerak edi. Bunga o‘xhash xatlardan yana biri Chadayevning “Falsafiy maktubi”<sup>6</sup> hisoblanadi. Bunday xatlarni epistolyar janr va kundalik yozuvlarining o‘rtasida turuvchi hodisa sifatida baholash mumkin.

Epistolyar janr bugungi kunda soddalashtirilgan shaklda bo‘lsa-da barhayot tarzda davom etib kelmoqda. Zamonaviy epistolyar janrning o‘ziga xos xususiyati uning o‘ta soddaligi va badiiy minimalizmida. Epistolyar aloqada ishbilarmonlik, jurnalistik, *do’st bilan yaxshi munosabatda bo‘lish* xususiyatlari bo‘rtib turishi mumkin. Maktubning asosiy vazifasi bu - ma’lumotni qabul qiluvchiga yetkazish. Bugungi kunda ushbu janrga asoslangan mualliflik asarlari juda oz.<sup>7</sup>

Maktublar mazmunidan xat egasining hayoti, faoliyati, fe'l-atvoriga xos belgilarni topish mumkin. Xatlar hamisha tarixiy faktlarni aks ettiruvchi manba sifatida xizmat qilavermaydi. Balki xat egasining ko‘proq maktub yozayotgan daqiqalardagi holatini, ruhiyatini belgilaydi. Maktublar kishiga hayotiy tajriba orttirishda, hayotda javob topolmagan savollariga javob topishda ko‘maklashadi.<sup>8</sup>

Maktublar tarix sahifalarini jonlantirishda, fikr yuritilayotgan shaxsga oid

6.Qo’chqorova M. Maktublar- qalb ko’zgusi./ Juhon adabiyoti. 2009, 11-soni. – B. 58.

7. Shu manba. – B. 59.

8. Ibrohimova R. Epistolyar janr eskirdimi?/ O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 2007, 10-soni. – B. 68.

ma'lumotlarni oydinlashtirishda, tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan ayrim zarur chizgilarni to'ldirishda ilmiy qimmatga ega. Ular faqat ko'ngil yozish, insonning o'z fikrini qog'ozda ifodalash usuli bo'libgina qolmay, balki, dunyoning turfa ranglarini ko'ra bilish, his etish imkonini ham beradi. Jahondagi barcha peshqadam ziylolar xat yozib, xat olishgan. Bugungi kunda texnika taraqqiyoti, telefon, telegraf, elektron pochta epistolyar janrni tashkil etuvchi maktublarga bo'lgan ehtiyojni bir qadar so'ndirdi. Kishilar bir-biriga xat yozishdan anchayin uzoqlashdi. Lekin maktublarning mohiyati emas, uning ko'rinishi o'zgardi xolos, deydi Ra'no Ibrohimova<sup>9</sup>.

Bizningcha, bugungi kunga kelib maktublarning shakli ham, mohiyati ham o'zgargan. Zero oradan 15 yil o'tdi. Chunki shuncha vaqt ichida shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda katta yangiliklar ro'y berdi. Internet tarmog'ida **WATS UP, TELEGRAM, INSTAGRAM, FACEBOOK** kabi bir qancha messenjerlar paydo bo'ldi. Endi SMSlarga ham deyarli ehtiyoj qolmadidi. Barcha, ayniqsa, yosh avlod vakillari internet tarmoqlari orqali bir-birlari bilan xabarlashyapti. Albatta, bu holatning ijobiy tomonlari ham ko'p: vaqt ni tejaydi, arzon, yuzma-yuz ko'rishish imkonii bor. Biroq, buning salbiy tomoniga ham ko'z yumolmaymiz. Savodsizlik darajasi ortib boryapti, o'z ona tilimizga behurmatliklar ko'payib ketyapti. Tengdoshlarimiz shunday go'zal tilimizning imkoniyatlaridan foydalana olishmayapti. Tinish belgilari, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishni unutib qo'yishgan. Shuning uchun yoshlarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ravon nutq orqali o'zgalarga yetkazib berish qobiliyati tobora pasayib bormoqda. Bu esa o'ta achinarli holat. Qo'l bilan qog'ozga yozilgan maktubning o'rni boshqacha bo'ladi. Undan muallifning hidi, qanday holatda(shoshib, hotirjam...) yozilgani haqida bilish mumkin. Kishi qalbining to'rida yashiringan eng nozik tuyg'ularni qog'ozga to'kib solish og'zaki aytishdan ko'ra ba'zan osonroq kechadi va qalbga tezroq yo'l topadi. Nima bo'lganda ham, qo'l bilan yozilgan maktubning qadri, harorati boshqacha bo'ladi. Shuning uchun bugungi kunda did bilan, chiroyli nutq bilan yoziladigan maktublarga ehtiyojimiz bor.

Umuman olganda, maktub, xat, nomani bir-biridan farqlash, uning o'rganilishiga oid ma'lumotlarni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Maktublar genezisini tadqiq qilish uning keyingi taraqiyyoti uchun muhim sanaladi. Qadimgi dunyo adabiy qarashlarining shakllanishida va ifodalanishida maktubdan foydalanilgan. Keyinchalik esa bu adabiy tanqidda maktub janrining yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent: Fan. 2007.
2. G'ofurov I. Dil erkinligi. - Toshkent: Ma'naviyat. 1998.
3. Xudoyqulov E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. Fan. 2006.
4. Qo'chqorova M. Maktublar- qalb ko'zgusi./ Juhon adabiyoti. 2009, 11-soni.
5. Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Davlatov O. Navoiyshunoslik. - Toshkent: Tamaddun. 2018.
6. Ibrohimova R. Epistolyar janr eskirdimi?/ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007, 10-soni.

<sup>9</sup> "Эпистоляр жанр эскирдими?" / Ўзбек адабиёти ва санъати. 2007-йил 10-сон. - Б. 48.